«TASDIQLAYMAN»
O'zbekiston davlat
san'at va madaniyat instituti rektori
N.B.Sayfullayev
2024-yil « 22 » 08

**Aktyorlik san'ati: musiqali teatr aktyorligi ta'lim yo'nalishiga Vazirlik tavsiyanomasi asosida qabul qilish suhbat**

## BAHOLASH MEZONI

Talabgorga quyidagi mavzular bo'yicha savollar beriladi va umumiy maksimal 100 balgacha baholanadi. 55 va undan yuqori ball to'plagan talabgor suhbatdan o'tgan hisoblanadi.

| № | Mavzular | Maksimal ball |
|---|---|---|
| 1. | Mamlakatimizda musiqali teatr san'atini rivojlantirishga oid amalga oshirilayotgan islohotlarni mohiyati va ahamiyatini tushunishi bo'yicha: | 40 |
| 2. | Aktyorlik san'ati (musiqali teatr aktyorligi) ta'lim yo'nalishini tanlashda motivatsiya (sohaning mohiyatini va ijtimoiy ahamiyatini tushunishi, unga qiziqishini namoyon etishi) bo'yicha: | 20 |
| 3. | Aktyorlik san'ati (musiqali teatr aktyorligi) ta'lim yo'nalishining kasbiy xususiyatlari (ilmiy izlanishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas'uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek, o'z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatlari) bo'yicha: | 20 |
| 4. | Aktyorlik san'ati (musiqali teatr aktyorligi) ta'lim yo'nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko'nikmalarning mavjudligi bo'yicha: | 20 |
| | **Jami** | **100** |

**Qo'yilgan talablarga talabgorning javobini baholash mezoni**

| № | Baholash mezonlari | Ball |
|---|---|---|
| 1. | Qo'yilgan savolga talabgor tomonidan to'liq, batafsil javob berilib, mavzu haqida bilimi ko'rsatilsa va mavzuning asosiy qoidalari ishonchli tarzda ochib berilganda. Javobda aniq tushunchalar, nazariy va tarixiylikning mohiyatini aks ettiruvchi mantiqiy ketma-ketlik ifodalanganda. Javob adabiy tilda ifodalanganda. | 22-25 |

| | | |
|---|---|---|
| | Tushunchalarni ifodalashda, javob berish jarayonida talabgor tomonidan mustaqil ravishda xatolar tuzatilishi mumkin. | |
| 2. | Savolga to‘liq, batafsil javob berilib, mavzuning asosiy qoidalari aniq ochib berilganda.<br>Javobda aniq tuzilma hamda tushunchalar, nazariy va tarixiy jaryonlarning mohiyatini aks ettiruvchi mantiqiy ketma-ketlik ifodalanganda.<br>Javob adabiy tilda ifodalanganda.<br>Javobda suhbat komissiyasi a’zolari yordamida talabgor tomonidan tuzatilgan kamchiliklar bo‘lishi mumkin | 18-21 |
| 3. | Berilgan savollarga to‘liq va batafsil javob berilmaganda. Javobning mantiqiyligi va ketma-ketligi buzilganda. Fikrini bayon qilishda, atamalardan foydalanishda xatolarga yo‘l qo‘yilganda.<br>Talabgor soha xususiyatlarini anglay olmaganda. Bilimlarni konkretlashtirishda va ularning asosiy qoidalarini faqat o'qituvchi yordamida misollar bilan isbotlashi mumkin. Talabgor nutqida tuzatishlar talab qilinganda. | 14-17 |
| 4. | Talabgor savol mavzusi boyicha sezilarli xatolarga yo‘l qo‘yganda, bilimlarni ifodalovchi to‘liq bo‘lmagan javob berganda.<br>Tarqoq yoki mantiqsiz fikrlarni keltirganda. Savollarni to‘liq anglamaganda.<br>Xulosa va javoblarning isboti mavjud bo‘lmaganda. Nutqi aniq va ravon bo‘lmaganida.<br>Suhbat komissiyasi a’zolarining qo‘shimcha va aniqlovchi savollari talabgorning nafaqat berilgan savolga, balki mavzu bo‘yicha boshqa savollariga ham qoniqarsiz javob berganda. | 0-13 |

**Qabul komissiyasi mas’ul kotibi** **S.Turatov**